



## ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI "INTERAKTIV" METODLAR ORQALI TASHKIL ETISH USULLARI

---

*Rabbimova Zarnigor*

*O'zbekiston-Finlandiya pedadodika  
fakulteti 2-bosqich magistranti*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi fanida qo'llaniladigan va o'quvchilarni faolligini, darsga bo'lgan qiziqishini oshiradigan turli xil metodlar, didaktik materiallar va enerjayerlar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsion, metodlar, o'quvchi, dars, interfaol, samarali, mavzu

### АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены различные методики, дидактические материалы и энергетические средства, применяемые в науке о родном языке и литературе и повышающие активность учащихся.

**Ключевые слова:** инновационные, методы, студент, урок, интерактив, эффективный, тема

### ABSTRACT

This article presents various methods, didactic materials and energizers used in the science of mother tongue and literature, which increase students' activity.

**Keywords:** innovative, methods, student, lesson, interactive, effective, topic

### KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanib kelinmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini dars jarayonida qo'llash o'qitish jarayonini yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning mavzusidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilarni darsda bo'lgan qiziqishi, topqirligi, hozirjavob bo'lishligiga, egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga olib keladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga turtki bo'ladi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'quvchi shakl bergan daraxtga aylanadi. Dars jarayonida har xil metodlardan foydalanish har bir o'qituvchini izlanishga, muntazam o'z ustida



ishlashga va o'quvchini har doim izlanishga erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki unda o'quvchi o'zini erkin tuta olishi, fikrlarini ravon bayon qilishi, mavzuni juda yaxshi o'zlashtirilishi hamda amalda ko'rsatib berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, hozirgi kunda zamonaviy "interaktiv" metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, samaradorlikka erishilgan metodlar hisoblanadi.

"Sinf bu har xil qobiliyat, istedod va xarakterga ega bo'lgan dinamik muhit hisoblanadi. Shuning uchun samarali o'qituvchi bo'lish, o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitishning ijodiy va innovatsion strategiyasini amalga oshirishi kerak bo'ladi"[1;22]

Keng qo'llaniladigan metod-usullar—"Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", undan tashqari xorijiy tajriba asosida yaratilgan zamonaviy metodlar, "Avtofokus", "Qarmoq", "Keizen", "Sayohat", "Start", "Xat", "Quvnoq koptok", "Kreativ rag'bat", "Muxbir", "3D", "Aql xaritasi", "Shturm", "Do'stingni top", "5ta shlyapa", "Shovqinsiz sinf", "Aql charxi", "Tasavvur", "Sinf qutisi", "Hamkorlikda o'rganiish", "Zakovat", "Zanjir", "Aloqa", "Kognitiv fikrlash" "Qadamba-qadam", "Zeygarnik", "A va B", "Fokus", "Uchburchak", "Puzzle", "Kroford", kabi metodlardan foydalanib samarali natijaga erishish mumkin. Ona tili va o'qish savodxonligi darsida o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Quvnoq koptok", "Kreativ rag'bat", "Muxbir", "3D", "Aql xaritasi", "Shturm", "Do'stingni top" metodlarni, yangi mavzuni bayon qilish qismida "Avtofokus", "Taqdimot", "5ta shlyapa", "Shovqinsiz sinf", "Kognitiv fikrlash" "Qadamba-qadam", "Zeygarnik" metodlarni, yangi mavzuni mustahkamlash qismida Aql charxi", "Tasavvur", "Sinf qutisi", "Hamkorlikda o'rganiish", "Zakovat", "Zanjir", "Aloqa", "Fokus", "Uchburchak", "Puzzle", "Kroford" metodlarini, uyga vazifa berishda "Puzzle", "Taqdimot", "Xat" kabi metodlarni darsda qo'llash dars samaradorligini, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Bundan tashqari dars jarayonida o'quvchilarni ruhlantirish, dam olish, diqqatni jamlab olish maqsadida "Energizer" metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ona tili darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "80 ga 20 %", "O'ylang, juftlang, ayting", "Jim", "Kim chaqqon", "Xotira", "Qarsak", "Zinama-zina" kabi didaktik o'yinlardan foydalanish samarali. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tuta oladi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat, bajara olish imkoniyati paydo bo'ladi. O'quvchilar bir-birlari bilan munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bu didaktik o'yinlarda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi kerak.



O'quvchilarga har darsda bir xil dars o'tish ularning zerikishiga olib keladi va fanga bo'lgan e'tiborini so'ndiradi . Bunday holatlarning oldini olish uchun dars mashg'ulotlar jarayonida turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish samarali bo'ladi. Turli xil qiziqarli metodlardan foydalanish o'quvchilarning diqqatini oshiradi, darsga faol bo'lishga undaydi.

O'quvchini qanday ruhlantirish kerak?

1. O'quvchining qilayotgan mehnati va erishgan natijalarini e'tirof etish. Bu oddiy maqtov so'z yoki qandaydir mukofot bo'lishi mumkin. Lekin, maqtov eshitish yoki mukofot olish o'quvchining maqsadiga aylanib qolmasligi lozim.

2.O'qishning ahamiyati va o'quvchilarning asl maqsadlarini eslatib turish, ilm olish majburiyat emas, shaxsiy tanlov ekanligini uqtirish.

3. Bir xillikdan qochish. Vaqti-vaqti bilan topshiriqlarning shakliniozgartirib turish mumkin yoki hatto ba'zida darsga boshqa o'qituvchini, mashhur shaxslarni, ota-onalarni taklif qilib turishi ham mumkin.

4. Real hayot bilan bog'lash. Darsdagi misollar, topshiriqlar o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan insonlar, hodisalar atrofida jamlansa, o'quvchilarga qiziqroq bo'lishi mumkin.

5."O'qituvchining o'zi ishtiyoqi baland bo'lishi. Ruhiy horg'in inson boshqalarda motivatsiya uyg'otishi qiyin"[2;15]

### MUHOKAMA

**“Klaster” metodi.**”Klaster-grafik organayzeri “Fikrlarning tarmoqlanishi” degan ma’noni anglatadi. Bu metod turi o'quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi“[3;3]Fikrlarning tarmoqlanishi” quyidagicha tashkil etiladi: 1.Xayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi; 2.Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi;3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim. Ona tili darslarida “So'z turkumlari” mavzusini yoritishda “Klaster” usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o'quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. Masalan, sifat so'z turkumiga oid tushunchalarni ular quyidagi tartibda tarmoqlarga ajratishlari mumkin. “Klaster” usulida so'z turkumlari tushuntirilganda o'quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so'z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O'quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni



toifalarga ajratib chiqadilar. “Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi: 1. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish; 2. Yozma nutqni takomillashtirish; 3. Fikrlash qobiliyatini shakllantirish; 4. Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish. Pedagog Turdiyeva Gulbahor Toxirovning bu “Klaster” haqidagi fikrlari juda ham o‘rinli ifodalab berilgan. Haqiqatan ham bu metodni ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash, bu o‘quvchilarni o‘zini erkin tuta olishi, o‘z fikrini ravon bayon qilishi, izlanuvchi bo‘lishiga olib keladi.

**“Avtofokus” metodi.**”Bu zamonaviy metodga ikkita qizil hamda ko‘k kartichkalar kerak bo‘ladi. Bu metodni yangi mavzuni bayon qilish qismida qo‘llasa, eng qiyin mavzuni ham bolalar diqqat bilan tinglashadi hamda xotirada saqlab qolishga harak qiladi.”[4;10]

Bu metodni darsda qo‘llaganda nimalarga erishish mumkin:

- O‘quvchilarning darsda bo‘lgan fokuslarini oshira olasiz;
- O‘quvchilarda proaktiv shakllanadi;
- Siz qaysi fan o‘qituvchisi bo‘lishingizdan qat’iy nazar bu metoddan foydalana olasiz;
- Mavzuni o‘quvchilar kengroq anglaydi.

Metodni darsda qo‘llash jarayonida o‘quvchilarga bu metod haqida oldindan aytib berish kerak bo‘ladi. Qizil va ko‘k kartichkalar bolalarga tarqatiladi, so‘ngra yangi mavzu tushuntiriladi, mavzu bayon qilingandan keyin, qizil yoki ko‘k kartichkadagi o‘quvchilar o‘rnidan turadi va ularga yangi mavzu yuzasidan savollar beriladi, savolga javob bermagan o‘quvchi o‘rniga boshqa ko‘k kartichkadagi bitta o‘quvchi javob berishi mumkin, agarda u ham javob bermasa ko‘k kartichkadagilar tikka turadi, keyin qizil kartichkadagilar turadi va ularga ham savollar beriladi.

**“Qarmoq” metodi.** Bu metodni darsda qo‘llaganda qanday natijalarga erishish mumkin:

- O‘quvchilarni o‘ylashga va fikrlashga majbur qila olasiz;
- Darsda jumboq qo‘shish orqali o‘quvchilarni qiziqitira olasiz;
- Darsning yakunigacha aktivlikni saqlashga erishasiz;
- O‘quvchilaringiz tanaffusni emas dars yakunidagi sizning so‘zingizni tinglashni kutishadi;
- O‘quvchilarning IQ darajasini oshirishga undovchi metod.

**“Xotira mashqi” o‘yini.**”Bu metod o‘quvchilarda hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida, diqqatni jamlash, ayniqsa birinchi tanishuv darsida, dars oxirrog‘ida qo‘llash mumkin bo‘lgan o‘yin.”[5;15]



Bu o'yinda masalan, matematika darsini oladigan bo'lsak, bironta o'quvchi matematikaga oid bironta atamani aytadi, masalan, 1- o'quvchi qo'shish deb aytsa, 2- o'quvchi esa 1- o'quvchi aytganini aytib keyin o'zi ham bitta atama aytishi kerak, qo'shish, tenglama, 3-o'quvchi ham ana shunday davom etadi.

Bu metodning maqsadi bolalarda zerikishni yoqotish, diqqatni jamlash ,xotirani kuchaytirishdan iborat.

Darslarda bu kabi metodlarni qo'llash o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini , aktivligini, diqqatini jamlashiga olib keladi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy-innovatsion metodlar o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishiga, bilim va ko'nikmalarni oson va qiziqarli egallashlariga samarali natija beradi. Dars jarayoni davomida shu va shu kabi metodlardan foydalanish, o'tilgan mavzuni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlashga ijobiy yordam beradi. Dars jarayonida o'quvchilarning diqqatini, qiyin mavzularni ham osongina egallashiga o'zining samarasini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni boshlang'ich sinf darslarida hamda yuqoriy sinflardagi deyarli barcha darslarda qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga,

Mustaqil va kreativ fikrlashga, hozirjavoblikka, o'zining erkin fikriga ega bo'lish qobiliyatlarini rivojlantirishiga samarali yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

- 1.O.U. Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" O'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent–2017.[22-bet]
2. Sadiqov U "Kreativ pedagoglar uchun tuzib chiqarilgan eng sara maslahatlar va qo'shimcha metodlar" to'plami – T: 2022–25.B [15]
- 3.Turdiyeva Gulbaxor T "Interfaol metodlar" maqola [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)
4. Kreativ-pedagog\_www.sadikov.uz\_ (1)
- 5.TG'afforova, Sh.Nundlayeva. O'qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T "Sharq" 2012.-144 h